

Alisher Navoiyning ‘‘Mahbub ul qulub’’ asarida pedagogik qarashlar.

Maxamatova Feruza Safaraliyevna
Jizzax davlat pedagogika instituti
Pedagogika ta’limi nazariyasi
kafedrası o’qituvchisi
Xoliqova Xolida Abdulatif qizi
Pedagogika nazariyasi va tarixi
magistratura yo’nalishi
2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk bobokolonimiz Alisher Navoiyning ‘‘Mahbub ul qulub’’asari, uning o’qituvchi faoliyatiga bergan ta’rifi, ma’rifat haqidagi fikrlari, pedagogik qarashlari, maqollar va ulardan yoshlar tarbiyasida qanday foydalanish haqidagi fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: o’qituvchilik kasbi, ta’lim, odob, maqol, tashbeh, ma’rifat.

Ma’lumki, Alisher Navoiy- o’zbek xalqining buyuk shoiri, mutafakkiri, ma’rifatparvar allomasi hisoblanadi. Alisher Navoiy haqida so’z ketar ekan birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning ‘‘Ta’bir joiz bo’lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so’zlovchi biron bir inson yo’qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa’’.

‘‘Agar bu ulug’ zotni avliyo desak, avliyolar avliyosi, mutafakkir desak muttufakkirlarning mutafakkir, shoir desak shoirlarning sultoni’’ kabi oltinga teng so’zlarini yodga olishimiz zarur.

Alisher Navoiy o’zining so’nmas ijodida asosiy mavzu qilib ilm-ma’rifat, bolalar ta’lim tarbiyasi, yoshlikdan mehnat qilish haqida fikrlarni ilgari suradi va ‘‘Farhod va Shirin’’, ‘‘Layli va Majnun’’, Hayratul abror’’, ‘‘Mahbub ul qulub ‘‘ kabi asarlarida bosh g’oya qilib oladi.

Navoiyning fikricha, ilm fanni yoshlikdan boshlab o’qib o’rganish kerak: ‘‘Yoshligingda yig’gil bilimni, qariganda sarf qil ani’’ deb bilim olishga undagan. Uning ‘‘ Mahbub ul qulub ‘‘ ‘‘Ko’ngillarning sevgani’’ asari –oltmish yillik umri davomida hayotda ko’rgan kechirganlarini teran tahlil qilib, xulosalar chiqargan donishmandning kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma’naviy merosidir. Asar 1500-yilda pandnoma yo’nalishida yozilgandir. Asar 3 ta bo’limdan iboratdir. 1-qism 40 faslni o’z ichiga oladi. Bunda muallif o’z davrining tipik vakillari hayotini tasvirlagan.10 bobdan iborat ikkinchi qismda yaxshi va yomon, maqtovga sazovor va nafratga loyiq xislatlar tavsiloti berilgan.

Uchinchi qismda masal va hikmatlar ulardan hayotda qanday qo'llash yo'l yo'riqlari berilgan.

Navoiy donishmand va murabbiy, ulkan madaniyat arbobi sifatda ilm-fan, san'at va adabiyotning ahamiyatini targ'ib qiladi, malakali, iqtidorli o'qituvchilarni, olimlarni, shoirlarni, san'atkorlarni maqtaydi, ularni hurmat qilishga va qadrlashga chaqiradi. Bu o'rinda u murabbiylarning halol xizmatlarini alohida takidlaydi.

Kitobning 2-qismi, asosan, axloqiy masalalarga bag'ishlangan. Bu bobda yaxshi fazilat va yomon xislatlar tahlil qilinadi. To'g'rirog'i, insonda bo'lishi kerak bo'lgan odob-axloq haqida gap boradi. Masalan, qanoatni olaylik. Navoiy qanoatli odamlarni sevadi, ularga havasi keladi. Kimki qanoatli bo'lsa, unday odamni el sevishini, e'zozlashini ta'kidlaydi. Mutafakkir qanoatni bir buloqqa – chashmaga o'xshatadi. Negaki buloq suvini qancha olgan bilan qurimaydi, u bir xazinadirki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug'i izzat va shavkat hosilini beradi. U bir daraxtki, unda qaram bo'lmaslik va hurmat mevasi bordir. Bu bobda sabr, tavoze haqida ham ko'p ibratli gaplar aytiladi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida xalq og'zaki ijodidan, ayniqsa, maqollardan samarali foydalanish bilan birga, o'zi ham ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan maqollarga yaqin bo'lgan bir qancha hikmatlar yaratadi. Masalan:

Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q.

Tilga e'tiborsiz – elga e'tiborsiz.

Oz-oz o'rganib dono bo'lur,

Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

Bilmaganni so'rab o'rgangan – olim,

Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

Asarning har bir qismida ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning yuksak ma'naviy qiyofasi, buyuk ma'rifatparvar ekanligini, uning so'z kuchi qudratini his qilamiz. Alisher Navoiy bu asardagi har bir tanbeh, baytlari hayotiy hikmat darajasiga ko'tarilganki, bu tanbehlarining zamiriga xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi yordamida to'plangan maqol va matallarning mazmuni singdirilgan.

Alisher Navoiy ilmni ta'riflaganda “ilm olib amal qilmagan kishi, misoli yerni haydab urug' sepmaganga yoki urug' sepib, undan hosil olmagan o'xshatadi. Shunday ekan biz ham har bir o'rganayotgan narsamizni mukammal o'rganishimiz va undan o'z hayotimizda samarali foydalanishimiz va boshqalarga foydamiz tegishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytgandek: “Alisher Navoiy dunyoni ma'naviy tanazzuldan qutqara oladigan mutaffakkirdir”. Uning Mahbub ul-qulub asari esa har tomonlama yosh avlodga ta'lim tarbiya berishda, ularning ma'naviy ongini o'stirishga qo'llay oladigan asar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1.Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” Toshkent G’afur G’ulom nomidagi nashriyot matba ijodiy uyi, 2011-yil, 453 -454 bet

2.Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” Yoshlar nashriyot uyi , Toshkent 2018-yil 117-bet

3.I. A.Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” Toshkent 2008-yil 34bet

4.Masharipova .Z “mahbub ul-qulub hikmatlarida xalq maqollari” Navoiyga armug’on. 5-kitob. Toshkent .2006. 78- bet.

5 .Shavkat Mirziyoyev “Yangi O’zbekiston” gazetasiga bergan intervyusidan.